BOYSUN TUMANI GIDRONIMLARINING INDIKATORLARI, LEKSIK-SEMANTIK, GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Mamataliyeva Ra'no Rahmatovna

E-mail: mamataliyevarano@gmail.com

Qabul qilindi: 23.10.2025
Ko'rib chiqildi: 24.10.2025
Tasdiqlandi: 25.10.2025

Annotatsiya: Boysun tumani gidronimiyasida qo'llanadigan gidronimik indikatorlar, Boysun tuman gidronimlarining leksik-semantik tahlili, Boysun tumani gidronimlarining yasalishi

Kalit so'zlar:
Gidronim, leksik-semantik tahlil, gidronimlarning yasalishi, indikatorlar,gidronimlarning grammatik xususiyatlari.

Ma'lumki ilmiy tadqiqotlarda onomastik terminlarni turlicha nomlash kuzatiladi. Rus tilshunosligida A.B.Superanskaya "geografik so'z"[1], B.A.Serebrennikov toponimlarga qo'shib aytiladigan birliklarni "indikatorlar"[2], V.A.Nikonov esa "geografik atamalar" deb ataydi[3]. Tojik tilshunosligida S. Sheraliyeva gidronimlar bilan qo'llanadigan so'zlarni "gidronimlar yasovchi formantlar" desa[4], qozoq tilshunosligida G.K.Konkoshbayev "xalq geografik terminlari"[5], boshqird tilining toponimlarini tadqiq qilgan A.A.Kamalov "geografik terminlar"[6] deb ataydi. O'zbekiston toponimlari tadqiqi bilan shug'ullangan olimlar Z.Do'simov, S.Qorayev, T.Enazarov toponimlarni anglatadigan so'zlarni "indikatorlar" deb ataydilar[7]. Odatda tabiatda uchraydigan barcha geografik ob'ektlar geografik terminlar bilan ataladi. Gidronimlarni anglatuvchi ko'rsatkichlarni, ya'ni ariq, arna, buloq, daryo, ko'l, soy, jilg'a, irmoq, quduq, hovuz kabi atamalarni indikatorlar deb atash maqadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Arna indikatori. Arna hajman daryodan kichik, ariqdan katta, suvning harakatlanish oqimi bo'yicha oqadigan suv ob'ekti. *Arna* gidronimik indikatori

[1] Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: Наука, – С. 98 – 100.
[2] Серебренников Б.А. О методах изучения топономических названий // Вопросы языкознания. – Москва, 1959.№ 6. – С. 37.
[3] Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: ЛКИ, 2010. – С. 11.
[4] Шералиева С. Гидронимия Хотлонской области: Дис. … канд. филол. наук. – Душанбе, 2015. – С. 85.
[5] Конкошбаев Г.К. Казахские народные географические термины // Известия АН КазССР. Серия география. –Алма-ата, 1951. – вып. 3. – № 99.
[6] Камалов А.А. Некоторые аспекты изучения башкирских народных географических терминов // Вопросы топонимики Башкирии. – Уфа, 1981. – С. 10.
[7] Дўсимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма: Дис. … докт. филол. наук. – Ташкент, 1986. –С. 36; Кораев С. Топонимия Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 16; Эназаров Т. Ўзбекистон топонимлари:луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: Филол. фан. докт. … дис. – Тошкент, 2006. – Б. 44.

va *kanal* indikatori teng qo‘yiladi va tadqiqotlarda arna, kanal nomlari deb bir o‘rinda tahlil qilinadi. S.Qorayev ham *arna* terminini *katta kanal* ,Mirzacho‘l regionida esa *jar* deb izohlaydi. ***Ariq*** indikatori. Ariq sun’iy ravishda yasalgan suv yo‘li, o‘zani va undagi suv. (Qadimiy eroniy tillarda oqmoq fe’lining o‘zagi, ya’ni “suv”). Boysun tumanida ariq indikatori bilan nomlanuvchi gidronimlar: *Jo‘yi Yusuf*, *Novariq* (Boysunt.Darband q.), *Jo‘yi Chinor*, *Jo‘yi Kabutiy*, *Jo‘yi Kalon*, *Jo‘yi Qayirma*, *O‘rtaariq*, *Qizilariq*, *Toirariq//Tohirariq*, *Tutisiyo(h)* (Boysun t. Sayrob q.). ***Band*** indikatori. *Band* so‘zi *to‘siq, g‘ov, to‘siq, to‘g‘on,damba* ma’nolarini anglatadi. Suv ombori, soy va daryolarga qurilgan to‘g‘on. Suv to‘planadigan va ayriladigan joy nomi. *Sarband* (Boysun t. Pulxokim q.), *Sarband* (Boysun t. Machay q. Machay daryosiga tashlangan to‘siq).

Gidronimlarning nomlanishida shu ob’ektning joylashish o‘rni, kishilarning qanday etnik guruhga mansubligi, ob’ekt atrofidagi o‘simliklar va hayvonot dunyosi, gidronimning bunyod etilishida rahbarlik qilgan hamda bunyod etgan shaxs, shuningdek gidronim hududida yuz bergan hodisa ishtirokchisi bo‘lgan shaxs nomlari nomlanish motivi vazifasini bajaradi. Boysun tuman gidronimlari tarkibida **etnogidronimlar**, ya’ni ma’lum urug‘ va qavm nomlari bilan ataladigan gidronimlar ham uchraydi.

Boysun tumani gidronimlari tarkibida antropogidronimlar ham mavjud. **Antropogidronimlar** kishi nomi bilan bog‘liq bo‘lgan gidronimlar hisoblanadi. V.A.Nikonov: “Kishilarning mashhur insonlarning nomlarining geografik atamalarga aylanishi bu – onomastikada keng tarqalgan lingvistik hodisalardan biri”[8] deb ko‘rsatadi. Kishilarning suv ob’ekti bilan munosabati: unga egaligi, barpo etganligi kabi dalillar asosida motivlangan, atalgan suv ob’ektlari *antropogidronimlar* deyiladi[9].

Topogidronimlar. Suv ob’ektlarining toponimlarga nisbat berish asosida yuzaga kelgan atoqli nomlari topogidronimlar hisoblanadi[10]. Demak, joy nomlari bilan bigliq bo‘lgan gidronimlar topogidronimlar hisoblanadi.

Boysun tumani topogidronimlarining yasalishida quyidagi tiplarni uchratishimiz mumkin: 1.Toponim+buloq. *Omonxona bulog‘i,* (Boysun t. Omonxona q.) *Pudinabuloq* (Boysun t. Pudina q.) 2.Toponim+soy. *Inkabodsoy* (Boysun t. Inkabod q.), *Otchoparsoy* (Boysunt. Pulxokim q.), *Panjobsoy* (Boysunt. Sayrob q.), *Pulxokimsoy* (Boysun t.) 4. Toponim+ariq. *Mechitli arig‘i* , *Koreys tepa arig‘i* (Boysun t. Pulxokim q) 5. Toponim+ko‘l. *Xomkon ko‘l* (Boysun t.) kabi.

Agiogidronimlar. Agiogidronnimlar termini grekcha agio – “muqaddas, ilohiy” va gidronim – “suv ob’ekti nomi” ma’noli qismlaridan tarkib topgan. Demak, agiogidronimlar – diniy e’tiqod va tushunchalar, xalq

[8] Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – С. 30.
[9] Uluqov.N O’sha asar. 86-bet.
[10] Uluqov.N O’sha asar. 90-bet

urf-odatlari va marosimlari asosida muqaddas, ilohiy deb qaralgan narsa, voqea-hodisalar, joy bilan atalgan suv ob'ekti nomlaridir. Masalan, *Xo'jamayxona bulog'i*. (Boysun t. Darband q.), *Omonxona bulog'i* (Boysun t. Omonxona q.), *Xo'jaqo'chqor ota bulog'i* (Boysun t. Padang q), *Hazrat Eshon bobo bulog'i* (Boysun t. Pulxokim q.) kabi.

, Boysun tuman gidronimiyasida quyidagi affikslar vositasida gidronimlar yasalishi kuzatiladi:

1.-li affiksi. Bu qo'shimcha faol qo'llanadigan qo'shimchalardan bo'lib, o'zbek tilida ot, sifatdosh, harakat nomidan egalik, mavjudlik, ortiqlik ma'nosidagi sifatlar yasaydi.

2.-ma affiksi. Bu affiks ham o'zbek tilida faol qo'llanadiga affikslardan hisoblanadi. Fe'l asosidan shaxs va narsaning harakat-holat bilan bog'liq turli belgisini anglatuvchi sifat yasaydi[11]. Ushbu affiks fe'l asoslardan suv ob'ekti va undagi suvning turli turli belgi-xususiyatini ifodalovchi gidronimlar yasashda qo'llanadi.

Boysun tumani gidronimlarining salmoqli qismini qo'shma tarkibli gidronimlar tashkil etadi. Bu gidronim yasashda eng salmoqli usul kompozitsiya usuli ekanligini ko'rsatadi.

Boysun tuman gidronimiyasida quyidagi tuzilish tipidagi so'z birikmalaridan kompozitsiya usulida qo'shma tarkibli gidronimlar yasalishi kuzatiladi:

Sifatlovchili (yoki bitishuv munosabatidagi) so'z birikmalaridan yuzaga kelgan qo'shma tarkibli gidronimlar: *Qo'g'alisoy* (Boysun t.), *Oqbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.).

Sifatlovchi + sifatlanmish aloqasidagi birikmalardan kompozitsiya usulida yasalgan qo'shma tarkibli gidronimlar morfologik jihatdan quyidagi modellarda bo'ladi:

a) sifat+ot: *Qizilariq* (Boysun t. Sayrob q.), *Qizilbuloq* (Boysun t. Sayrob q.), *Kattatomchi* (Boysun t. Sho'rob q.), *Uzunsoy* (Boysun t.), *Uzunquduq* (Boysun t.), *Teshiksoy* (Boysun t. Xo'jabulg'on q.), *Sho'rsoy* (Boysun t. Pulxokim q.), *Yolg'izbuloq* (Boysun t. Darband q.), *Qo'shchashma* (Boysun t. Machay q.) kabi.

b) ot+ot: *Zarangsoy* (Boysun t.), *Qayroqsoy* (Boysun t.), *Anorbuloq* (Boysun t. Sayrob q.), *Qo'chqorbuloq* (Boysun t. Pulxokim q.), *Tababuloq* (Boysun t. Pulxokim q.), *Toshbuloq* (Boysun t. Xo'jabulg'on q.), *Shakarbuloq* (Boysun t. Sho'rob q.), *Chinorbuloq* (Boysun t. Sayrob q.), *Pudinabuloq* (Boysun t. Machay q.), *Oynabuloq* (Boysun t. Machay q.) kabi.

d) son + ot: *Uchko'z* (Boysun t.), *Birmesh* (Boysun t.)

e) sifatdosh +ot: *Yonarbuloq* (Boysun t.Machay q.), *kabi.*

[11] Begmatov E.Shimoli Xorazm toponimlarining yasalishi.O'zbek tili va adabiyoti.1969.N5- I,79

Boysun tuman gidronimlarining indikator xususiyatlari, leksik-semantik tarkibi va grammatik xususiyatlari turlicha.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Суперанская А.В. Что такое топонимика? – М.: Наука, – С. 98 – 100.
2.Серебренников Б.А. О методах изучения топономических названий // Вопросы языкознания. – Москва, 1959.№ 6. – С. 37.
3.Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: ЛКИ, 2010. – С. 11.
4.Шералиева С. Гидронимия Хотлонской области: Дис. … канд. филол. наук. – Душанбе, 2015. – С. 85.
5.Конкошбаев Г.К. Казахские народные географические термины // Известия АН КазССР. Серия география. –Алма-ата, 1951. – вып. 3. – № 99.
6.Камалов А.А. Некоторые аспекты изучения башкирских народных географических терминов // Вопросы топонимики Башкирии. – Уфа, 1981. – С. 10.
7.Дўсимов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма: Дис. … докт. филол. наук. – Ташкент, 1986. –С. 36; Кораев С. Топонимия Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 16; Эназаров Т. Ўзбекистон топонимлари:луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: Филол. фан. докт. … дис. – Тошкент, 2006. – Б. 44.
8.Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – С. 30.
9.Uluqov.N O'sha asar. 86-bet.
10.Uluqov.N O'sha asar. 90-bet
11.Begmatov E.Shimoli Xorazm toponimlarining yasalishi.O'zbek tili va adabiyoti.1969.N5- I,79